

# SIZ LIDERSIZ

elektron jurnal

1

14.07.2021



Prezident maktablari kirish imtihonlarining birinchi bosqichi  
uchun maxsus



## Jo'jani kuzda sanaymiz

A'llo baholarga o'qiydigan ko'pchilik yosh o'quvchilardan so'ralsa, keljakda prezident bo'lmoqchiliginı aytadi. Bu orzu qisman amalgamoshish imkoniyati mana hozir mavjud – prezident maktablariga kirish imkoniyati.

Aziz o'quvchi, siz bu satrlarni o'qiyotgan ekansiz, siz prezident maktabiga kirishni oldingizga maqsad qilib qo'ygansiz va buning uchun kamida bir yildan beri tinmay harakatdasiz. Avvalo matabda a'llo baholarga o'qishingizga to'g'ri keldi. Matabdan so'ng esa uyda qo'shimcha tayyorgarlik ko'rdingiz yoki repititorga, maxsus kurslarga qatnadingiz. Yangi chiqqan **Siz lidersiz kitoblarini** ishlab chiqdingiz. Yakshanba kunlari repititsion testlarga qatnashdingiz. Shuning uchun siz balkim bu yil hatto ota-onangizdan ham bandroq bo'lgandirsiz. Mana yozning yarmidan o'tib siz ham o'z mehnatlaringizni sarhisobini beradigan vaqt ham keldi. Jo'jalar sanalishi kerak!

Imtihon yaqinlashgan sari hayajoningiz ortgan bo'lishi mumkin. Chunki talabgorlar minglagan, biroq kirish joylari juda kam. Atigi 24 ta. Hayajoningizni bosing, tashvishlanmang! Imkoniyat hammaga teng, siz raqobatlashadigan talabgorlar ham sizdek oddiy o'quvchi. O'z salohiyatingizni yaxshilab ishga solsangiz imtihonlardan muaffaqiyatli o'tolasiz.

“Jo'jani kuzda sanaymiz.”- degan halq maqoli aynan imtihon haqida aytilgan. Lekin aziz o'quvchi siz qaysidir ma'noda allaqachon yetarli ‘jo'jalar’ingizga ega bo'ldingiz. Bu yil davomida siz o'qigan tanqidiy fikrlash, mantiqiy masalalarni yechish va ingiliz tili fanlari sizni bilimingiz va dunyo qarashingizni keskin o'zgartirdi. Bundan tashqar tayyorgarlik ko'rish jarayonida juda ko'plab iqdidorli do'stlar bilan tanishdingiz. Shularning ba'zilari bir umrga yaqin do'stnigiz bo'lib qolsa, ajab emas. Shuning uchun prezident matabidagi yakuniy imtihonlardagi natijangiz qanday bo'lishidan qat'iy nazar siz yutdingiz. Siz zamonaviy bilimlarni egalladingiz va bu bilimlar sizga albatta o'z mevalarini beradi.

Imtihonlarga qatnashadigan hamma o'quvchilarga omad tilab qolamiz!

**Siz lideriz kitoblari mualliflari**

# Imtihon oldi maslahatlar

- 1. Imtihondan bir yoki bir necha kun oldindan to'yib uqlashni boshlang.** Chunki to'yib uqlash miya faoliyatining maksimal darajada samarali ishlashiga yordam beradi. Unutmang! Prezident mакtablariga kirish imtihonlarida asosan miyadan ko'proq kuch talab qiladigan mantiqiy savollarni ishlashingizga to'g'ri keladi. Shuning uchun imtihon oldidan yetarli uqlash orqali, miya faoliyatizingizni to'liq kuchli holatga tayyorlang!
- 2. Imtihondan oldin to'g'ri ovqatlanishga e'tibor bering!** Ertalab to'yimli nonushta qiling. Chunki imtihon kuni siz kamida 3-4 soat imtihon jarayonlari (ro'yxatdan o'tish, qoidalar bilan tanishish va imtihon topshirish) bilan band bo'lasiz. Bunda siz juda och bo'lib qolmasligingiz kerak. Imtihon davomida o'zingizni juda och his qilsangiz, bunday vaziyatda miya faoliyatizingiz samarali ishlay olmasligi mumkin.
- 3. To'g'ri kiyinishga e'tibor bering!** Imtihonlar yoz oylarida va kamida 2-3 soat davom qilishini inobatga olgan holda, birinchidan, qulay va kengroq kiyim kying. Ikkinchidan, imtihon tartib-qoidalaricha talab qilingan kiyimlarni kying va bu odatda mакtabda doimiy tarzda kiyiladigan mакtab formalari bo'lishi mumkin.
- 4. Kerakli bo'lgan zarur xujjatlar yoningizda ekanligiga ishonch hosil qiling!** Uydan chiqishingizdan oldin o'zingiz bilan tug'ilgan haqida guvohnoma yoki pasport va maxsus imtihonga kirish ruxsatnomasini olganligingizga ishonch hosil qiling.
- 5. Hayajon – bu ko'rinas dushmandir!** Siz hayotingizda bunday katta imtihonga birinchi marta kirayapsiz. Tabbiyki bunday vaziyatda kuchli hayajonlanish bo'ladi. Hayajonni yo'qotishning eng samarali usullaridan biri bu uch marta chuqur nafas olish hisoblanadi.



6. **Imtihon nazoratchilari tomonidan tushuntiriladigan barcha qoidalarni diqqat bilan eshiting!** Chunki nazoratchilar odatda imtihon paytida o'quvchilarga nima qilish mumkin yoki mumkin emasligi haqida to'liq tushuncha beradilar.

7. **Savollar bilan tanishib chiqing!** Savollar kitobchasini ochishga ruxsat berilganidan keyin, unga tezda ko'z yogurtirgan holda, savol turlari haqida umumiyl tushunchaga ega bo'lishga harakat qiling. Bunday ishni qilish, hayajonni kamaytirishga va miyangizni imtihon savollariga tayyorlashga yordam beradi!

8. **Imtihon paytida vaqtini to'g'ri taqsimlang!** Imtihonda qiyin savollarni oxirida ishlash tavsiya qilinadi. Chunki ular ko'p vaqtingizni olib qo'yishi mumkin. Natijada, nisbatan osonroq bo'lgan savollarga javob topishga ham vaqt yetmay qolishi mumkin. Shuning uchun, ma'lum bir savolni ishlashga qiyalsangiz, uni vaqtincha tashlab ketib, keyinroq o'sha savolga qaytib kelib, to'g'ri javob topishga harakat qiling.


9. **Javoblarni qanday belgilash kerak?** Topgan to'g'ri javoblariningizni javoblar varaqasiga belgilashga shoshilmang. Bu ishni imtihonning oxirgi qismiga ya'ni imtihon tugashiga 40 yoki 30 daqiqa qolganida boshlang. Barcha javoblarni javoblar varaqasiga bo'yab chiqish sizda qancha vaqt olishini imtihondan oldin mashq qilib ko'rish orqali aniqlang.

10. **Imtihonni erta tugatmang!** Imtihonda savollarni ishlab bo'lganingizdan keyin, hali vaqt bor ekanligini bilsangiz, iloji boricha belgilagan javoblariningizni qaytadan ko'rib chiqing. Agar xatoliklarni aniqlasangiz, bemalol o'zgartirishingiz mumkin. Ko'p yillik tajribalardan shuni aytishimiz mumkinki, imtihonning oxirigacha sabr qilib ishlaganlar, odatda eng yuqori baholarni qo'lga kiritadilar.

## Sonlar nima deydi?

Tarixdan bizga ma'lumki, har qanday jang boshlanishidan oldin albatta raqib tomonning askarlar soni va kuchlar tengligi sarhisob qilinadi. Chunki bunday ma'lumotlar, sarkardalarga qanday uslublardan foydalangan holda jang qilinsa, g'alaba qozonish imkoniyatini ko'paytirishini ko'rsatib beradi. Xuddi shuningdek, Prezident Maktabiga kirishni niyat qilgan o'quvchilarda ham albatta ularning "raqiblar"i haqida qiziqishlar bo'ladi, jumladan ularning soni va bilim salohiyatlari haqida. Imtihonda qatnashuvchilarning sonini bilishimiz mumkin, lekin, affsuski, ushbu o'quvchilarning bilim darajasini bilishimiz mushkul vazifa. Shuning uchun quyida siz aziz o'quvchilar uchun viloyatlar bo'yicha Prezident Maktablariga kirish imtihonlari uchun ariza topshirgan yoshlар sonining tahlilini taqdim qilmoqchimiz. Bir narsani eslatib o'tishni joiz topdik! Imtihonda qatnashuvchilar sonining ko'pligi sizdan kuchlilar ko'pligini anglatmasligi va sizni tashvishga solmasligi kerak. Chunki imtihonda qatnashish huquqi barchaga berilgan, lekin imtihondan o'tish bu faqatgina sizning qattiq mehnat qilib tayyorgarlik ko'rganingizga bog'liq bo'ladi.

### O'zbekiston Respublikasi






## Imtihonlar qayerlarda bo'ladi

Ushbu 2021-yilda 10 ta hududda ya'ni Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Buxoro, Farg'ona, Andijon, Toshkent viloyatlarida Prezident Maktablariga qabul faqatgina bir marotaba 5,6,7,8,9 va 10-sinflarga bo'ladi. Chunki ushbu hududlarda Prezident Maktablari bu yil ilk marotaba o'z ish faoliyatini boshlaydi. Qolgan 4 ta hudud ya'ni Xorazm viloyati, Namangan viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shaharlarida faqatgina 5- va 6-sinfga qabul qilish imtihonlari bo'lib o'tadi.

### O'zbekiston Respublikasi







O'zbekiston Respublikasi bo'yicha Prezident Maktablariga kirish istagini bildirib hujjat topshirganlar soni **108549** ta bo'lib, shulardan **99197** nafar o'quvchining hujjatlari qabul qilingan, jami talabgorlarning 8% ning hujjatlari ra'd etilgan. Respublikamiz bo'ylab Prezident Maktablari kirish imtihonlarige eng ko'p ariza topshirgan viloyat bu **Samarqand** viloyati hisoblanadi va bu yerda jami **12185** ta o'quvchi imtihonlarda qatnashish uchun hujjatlar topshirishgan.



# Hududlardagi holat


Raqamlarni tahlil qilganimizdan keyin shu narsa aniq bo'ldiki, o'quvchilarining sinfi yuqorilagani sari, kirish imtihonlariga hujjat topshirgan o'quvchilar soni kamayib borgan. Bunday holat barcha viloyatlarda ko'zga tashlanadi. Birgina misol tariqasida Buxoro viloyatini oladigan bo'lsak, 5-sinfda o'qishga kirish uchun 1883 nafar o'quvchi yoshlar hujjat topshirgan bo'lsa, 10-sinfda o'qishga kirish uchun 6 marta kamroq, bor yo'g'i 305 ta o'quvchi hujjat topshirgan. Bunday sonlar tahlili bizga futbol o'yinlarini eslatib yuboradi. Chunki yoshlar o'rtasida turli xil xalqaro musobaqalarda muaffaqiyatli qatnashib yurgan futbolchilar istedodlar yillar o'tishi bilan ko'rinxmay qoladi. Bu esa o'z navbatida yildan-yilga futbolchilarda futbolga bo'lgan qiziqish kamayib borishini yoki boshqa tashqi omillar salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini bildiradi. Xuddi shuningdek bilimda ham, yoshlar o'rtasida Prezident Maktablarida o'qishni xohlovchilar qanchalik ko'p bo'lsa, yoshi ulg'aygan sari u yerda o'qishni xohlhayotganlar kamayib ketishini ko'rsatmoqda.

**Andijon viloyati****Buxoro viloyati****Farg'ona viloyati****Jizzax viloyati**




Siz Lidersiz


### Navoiy viloyati




### Qashqadaryo viloyati




### Sirdaryo viloyati




### Surxondaryo viloyati




### Toshkent viloyati




### Namangan viloyati




### Toshkent shahri



### Xorazm viloyati



### Qoraqalpog'iston Respublikasi



## **Qayerda eng ‘qiyin’ imtihon bo’ladi?**


Barcha hududlar va barcha sinflar orasida Samarqand viloyatida 5 sinfga eng ko’p 3258 ta o’quvchi imtihonlarda qatnashadi. Bu shuni bildiradiki, Samarqandda bu sinfda imtihonlar eng keskin raqobat asosida bo’lib o’tadi. Keyingi eng ko’p nomzodlar Namangan viloyatida 5 sinfga hujjat topshirdi (3193 ta).

## **Qayerda eng ‘oson’ imtihon bo’ladi?**

Hamma hududlar ichida eng kam nomzodlar Sirdaryoda 10 sinfga hujjat topshirdi. Atigi 299 ta. Ajablarnarlisi, keyingi o’rinda bu holat Buxoro viloyatida 10 sinflar o’rtasida kuzatildi. Atigi 305 o’quvchi imtihonlarda qatnashish ishtiyoqini bildirgan.

## **Birinchi boshqich imtihonlaridan kimlar ozod bo’ldi?**


Ayrim hududlarda, jumladan, Navoiy, Buxoro, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida 10-sinfga o’tish uchun hujjat topshirgan o’quvchilar to’g’ridan-to’g’ri ikkinchi bosqich ya’ni asosiy bosqich imtihonlarida qatnashadilar. Chunki Prezident Maktabi kirish imtihonlarining qoidalariga ko’ra asosiy imtihonlarda muktabga kirish uchun har bitta o’rin uchun 20 nafar o’quvchi kurashishi kerak. Ya’ni har bir sinfga 24 ta o’quvchi qabul qilinadigan bo’lsa, asosiy imtihonlarda 480 nafar o’quvchi har bir sinf uchun qatnashishi kerak. Lekin yuqoridagi viloyatlarda o’quvchilar soni 480 nafardan kam bo’lganligi uchun ham ular saralash imtihonlarida qatnashmaydilar va faqatgina asosiy imtihonda muktabga kirish uchun bilimlarini sinab ko’rishadi.



Siz Lidersiz kitoblari prezident maktabi kirish imtihonlari uchun maxsus ishlab chiqarilgan kitoblar to'plami. Kitoblar imtihonda tushadigan barcha fanlar va mavzularni qamrab oladi va savollarga to'liq yechimlar ko'rsatib beradi. To'liq to'plam hozirda 5 ta kitob va diskdan iborat.



Kitoblar haqida so'rash va buyurtma berish uchun  
[sizlidersiz.uz](http://sizlidersiz.uz) yoki +998712050108 ga bog'laning.



**Prezident maktablari kirish  
imtihonlarining birinchi bosqichi  
uchun testlar**

# **BARCHA SINFLAR**

## 5- 6 sinflar uchun

\* oson

\*\* nisbatan qiyin

\*\*\* qiyin

1\*. Hisoblang:  $18 \cdot 36 - 16 \cdot 36 + 24 \cdot 27 - 25 \cdot 24 - 21 \cdot 5 = ?$

A 45

B 1

C 0

D 15

2\*. Hisoblang:  $243 : (9:11) = ?$

A 27

B  $2\frac{5}{11}$

C  $\frac{11}{27}$

D 297

3\*. Kilogramm va grammda ifodalang: 30854 g

A 3 kg 854 g

B 308 kg 54 g

C 30 kg 854 g

D 300 kg 854 g

4\*. Quyidagi qaysi nuqta koordinata nurida 0 dan eng uzoq?

1. A(3), 2. B(-4) 3. C(2) 4. D(-3)

A 1

B 2

C 3

D 4

5\*. Kasrlarni taqqoslang:  $\frac{4}{5} \text{ va } \frac{5}{4}$

$$A \frac{4}{5} > \frac{5}{4}$$

$$B \frac{4}{5} < \frac{5}{4}$$

$$C \frac{4}{5} = \frac{5}{4}$$

$$D \frac{4}{5} \leq \frac{5}{4}$$

6\*. 243 ni qandaydir songa bo'lganda bo'linma 15 ga, qoldiq 3 ga teng chiqadi. Bo'luvchi nechaga teng?

- A 17
- B 16
- C 18
- D 19

7\*. Kavdrat mertlarda ifodalang: 5 ga  $25 \text{ m}^2$

- A  $50025 \text{ m}^2$
- B  $5025 \text{ m}^2$
- C  $500025 \text{ m}^2$
- D  $52500 \text{ m}^2$

8\*. Arda ifodalang:  $50 \text{ km}^2$

- A 50000 ar
- B 5000 ar
- C 500000 ar
- D 5000000 ar

9\*. Hisoblang:  $\frac{5}{2} + \frac{5}{4} - \frac{5}{8} = ?$

- A  $1\frac{7}{8}$
- B  $\frac{5}{8}$
- C  $3\frac{1}{8}$
- D  $4\frac{3}{8}$

10\*. Hisoblang:  $999^2$

- A 997991
- B 998001
- C 999001
- D 998991

11\*\*. Tenglamani yeching:  $420 : (160 - 65 : x) = 14$

- A 2
- B  $\frac{1}{2}$
- C 4
- D 1



**12\*\*.** O'lchamlari  $24\text{m} \times 15\text{m}$  bo'lgan zalni tomoni  $20\text{ sm}$  bo'lgan kvadrat shaklidagi plitkalardan nechtasi bilan qoplash mumkin.

- A 900
- B 18000
- C 9000
- D 1800

**13\*\*.** Qandaydir sonni  $289$  ga bo'lganda, qoliq  $287$  ga teng bo'lsa, shu sonni  $17$  ga bo'lgandagi qoldiqni toping?

- A 15
- B 2
- C 5
- D 16

**14\*\*.** Balandlig  $10\text{ m}$  bo'lgan simyog'ochga shilliqqurt ko'rataliyapti, Shilliqqurt kunduzi  $5\text{ m}$  ko'rataladi, kechasi esa  $4\text{ m}$  pastga tushadi. Necha kundan keyin shilliqqurt simyog'ochning uchiga chiqadi.

- A 10
- B 9
- C 6
- D 5


**15\*\*.** Agar maydonning har gektaridan  $35\text{ s}$  dan bug'doy hosili olinsa, rejani bajarish uchun  $20\text{ t}$  yetmaydi, agar har gektaridan  $42\text{ s}$  dan hosil olinsa, reja  $50\text{ t}$  oshirib bajariladi. Maydonning yuzi necha gektarga teng?

- A 100
- B 90
- C 110
- D 70

**16\*\*.** To'g'ri burchakli uchburchakning tomonlari butun sonlardan iborat va uning yuzi  $6$  ga teng. Uning bir tomoni boshqa tomonidan  $1\text{ ga}$ , yana bir boshqa tomonidan  $2$  ga uzunroq. Bu uchburchakning perimetrini hisoblang.

- A 15
- B 10
- C 8
- D 12

**17\*\*.** Quyida 40 dona kvadratdan tashkil topgan katta to'rt burchak berilgan. Bu shakldagi bo'ylagan qismining bo'yalmagan qismiga nisbatini toping.



A  $\frac{2}{3}$

B  $\frac{3}{4}$

C  $\frac{5}{6}$

D  $\frac{2}{5}$

**18\*\*.** Suv bilan to'dirilgan idishning og'irligi 7 kg, yarmigacha to'dirilganda esa 4 kg. Idish to'ldrilgandagi suvning og'irligini aniqlang.

A 1

B 4

C 6

D 7

**19\*\*.** Uchta sonning o'rta arifmerigi 20 ga, boshqa ikkita sonning o'rta arifmerigi esa 25 ga teng. Shu beshta sonning o'rta arifmetigini toping.

A 23

B 25

C 22

D 21



20\*\*. Egizaklar yoshining yig'indisi 10 yilda ikki marta ortdi. Yan 10 yildan keyin ulardan har birining yoshi nechaga teng bo'ladi?

- A 20
- B 30
- C 40
- D 25


21\*\*\*. 22 metr uzunlikdagi ipni 4 bo'lakka shunday ajratish kerakk, ikkinchi bo'lak birinchi bo'lakdan 2 marta uzun, uchinchi bo'lak birinchi bo'lakdan va to'rtinchi bo'lak ikkinchi bo'lakdan 1 metr qisqa bo'lsin. To'rtinchi bo'lak necha metr?

- A 8
- B 9
- C 7
- D 6

22\*\*\*. Soat 9:00 da tezligi 60 km/soat bo'lgan avtobus jo'natildi. Oradan 1 soat o'tgandan keyin, shu yo'nalish bo'yicha tezligi 80 km/soat bo'lgan ikkinchi avtobus jo'natildi. Soat nechada ikkinchi avtobus birinchi avtobusni quvib yetadi?

- A 10:00
- B 12:00
- C 13:00
- D 14:00

23\*\*\*. Bir kishi hovlisining bog'chasida hovuz yasayapti. U buning uchun 8 metr kenglikda, 4 m eniga va 1.5 m chuqurlikda chuqur qazidi.



Keyin bu chuqurni eni 10 cm, bo'yi 20 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi marmar tosh bilan qoplab chiqdi. Bu hovuzni yasash uchun nechta marmar tosh kerak bo'lgan?

- A 3400
- B 3800
- C 4400
- D 5000


**24\*\*\*.** Natural sonlardan iborat ketma-ketlikning ikkinchi sonidan boshlab har bir son o'zidan oldingi sonning kvadratidan 5 ni ayrilganiga teng. Agar she ketma-ketlikning uchinchi hadi 116 ga teng bo'lsa, uning birinchi hadi nechaga teng?

- A 3
- B 4
- C 5
- D 7


**25\*\*\*.** Son ikki qismga bo'lingan. Birinchi qismining  $\frac{1}{4}$  ulushi ikkinchi qismining  $\frac{1}{6}$  ulushiga teng. Agar ikkinchi qismining  $\frac{1}{18}$  ulushi 13 ga teng bo'lsa, sonning o'zini toping.

- A 252
- B 390
- C 168
- D 420

**26\*\*\*.** Quyidagi shaklni buklab kub yasalgan.




Quyidagi kublardan qaysi birini bu shakldan yasab bo'lmaydi?



27\*\*\*. Bir xil uzunlikdagi ikkita shamning biri 3 soatda, ikkinchisi 6 soatda yonib tugaydi. Ikkita sham ham bir paytda yona boshlagan bo'lsa, 2 soatdan so'ng ularning qolgan bo'yolarining nisbati qancha teng bo'ladi?


- A 1
- B 3/2
- C 2
- D 3

28\*\*\*. Quyidagi jismni yuqoridan qaragandagi shaklini toping.







(A)




(B)



(C)



(D)



29\*\*\*. Xaridada 3 sm uzunlikdagi kesmaga 72 km masofa mos keladi. Agar xaritada ikki shahr orasidagi masofa 7 sm bo'lsa, ular orasidagi masofa necha km?

- A 168
- B 140
- C 24
- D 79

30\*\*\*. Birinchi kuni ish rejasingning  $\frac{1}{2}$  qismi bajarildi. Ikkinchchi kuni birinchi kunda bajarilgan ishning  $\frac{1}{4}$  qismicha ko'p ish bajarildi. Shu ikki kunda qancha ish rejasi bajarilgan?

- A  $1\frac{1}{8}$
- B  $\frac{1}{4}$
- C  $\frac{3}{4}$
- D  $\frac{1}{8}$

## 7 - 8 sinflar uchun

\* oson

\*\* nisbatan qiyin

\*\*\* qiyin

1\*. Piyoda kishi  $1 \text{ km}$  yo'lni  $\frac{2}{9}$  soatda o'tadi. U  $\frac{3}{4} \text{ km}$  yo'lni qancha soatda o'tadi.

A  $\frac{1}{5}$

B  $\frac{1}{6}$

C  $\frac{8}{27}$

D  $\frac{1}{4}$

2\*. Ushbu  $(4x - 3)^2 - x(4x + 1)$  ifodani ko'phadning standart shakliga keltiring.

A  $2x^2 + x - 9$

B  $12x^2 - 25x + 9$

C  $4x^2 - 13x$

D  $12x^2 - 23x + 9$

3\*.  $\frac{0.07}{0.21} + \frac{0.4}{0.06} + \frac{0.9}{0.05}$  ifodanining qiymatini toping.

A 25

B 20

C 15

D 30

4\*.  $\begin{cases} 4x - y = 3 \\ x + 2y = 3 \end{cases}$  bo'lsa,  $x \cdot y = ?$

A 1

B 2

C 3

D 4

5\*. Quyidagilardan qaysi biri  $-1$  ga teng?

A  $((-1)^3)^2$

B  $(-(-1)^3)^6$

C  $(-(-1)^2)^4$

D  $-((-1)^3)^4$



6\*.  $3(2x-1) - 2(x-2) = x - 7$  tenglamada  $x = ?$

- A 0
- B -6
- C 5
- D -3

7\*.  $4^{12} + 4^{12} + 4^{12} + 4^{12}$  yig'indining yarmini hisoblang.

- A  $2^{25}$
- B  $2^{24}$
- C  $4^{48}$
- D  $2 \cdot 4^{16}$

8\*.  $999^2 = ?$

- A 997991
- B 998001
- C 999001
- D 997001

9\*. Hisoblang.  $\frac{27^3}{3^4 \cdot 9^2} = ?$

- A 3
- B  $\frac{1}{3}$
- C 1
- D 9

10\*. Tenglamani yeching.

$$\frac{3x - 11}{4} - \frac{3 - 5x}{8} = \frac{x + 6}{2}$$

- A 5
- B -4.5
- C 6.5
- D 7

11\*\*. To'g'ri burchakli uchburchakning eng katta tomoni 5 ga teng, eng kichik tomoni esa 3 ga teng. Shu uchburchakning yuzini aniqlang.

- A 6
- B 8
- C 15
- D 6



**12\*\*.** Kasrning surati va mahrajining yig'indisi 23 ga teng. Surati maxrajidan 9 ga kam. Kasrni toping.

A  $\frac{7}{16}$

B  $\frac{8}{15}$

C  $\frac{16}{7}$

D  $\frac{10}{13}$

**13\*\*.** Paxtadan 30% tola olinsa, 60 tonna tola olish uchun qancha paxta kerak?

A 100

B 400

C 200

D 300

**14\*\*. Hisoblang.**

$$\frac{(3.7^2 - 6.3^2) \cdot (13^2 - 12.6^2)}{(4.2^2 - 5.8^2) \cdot (2.3^2 - 0.3^2)}$$

A 32

B 0.32

C 3.2

D  $\frac{1}{32}$

**15\*\*.** Burgutlar va Alplar maktab zakovat jamoalaridir. Quyida ularning qaysi o'yinlarda qancha yakuniny bal to'plagani ko'rsatilgan.

Jamoalar / O'yinlar	1	2	3	4	5
Burgutlar	50	28	63	48	39
Alplar	49	35	64	40	45

Alplar necha foiz o'yinlarda g'alaba qozonishgan?


A 40%    B 20%    C 60%    D 80%

16\*\*. Avtomobil ikki shahar orasidagi masofani 12 soatda bosib o'tadi. Bu avtomobil tezligini soatiga 20 km oshirsa, bu shaharlar orasidagi masofani 9 soatda bosib o'tadi.

Ikki shahar orasidagi masofani toping.

- A 480
- B 600
- C 720
- D 960

17\*\*. Quyidagi shaklning hamma burchaklari to'g'ri burchak ostida kesishadi.



Bu shaklning perimetrini toping.

- A 22
- B 28
- C 44
- D 36

18\*\*. Uchta sonning o'rta arifmetigi 20 ga, boshqa ikkita sonning o'rta arifmetigi esa 25 ga teng. She beshta sonning o'rta arifmerigini toping.

- A 22.5
- B 22.6
- C 24
- D 22

19\*\*. Agar yanvar oyida beshta dushanba, beshta seshanba va beshta chorshanba bo'lsa, birinchi fevral haftanining qaysi kuniga to'g'ri keladi?

- A payshanba
- B juma
- C shanba
- D yakshanba



**20\*\*.** Restaranda Aziza, Bilol va Guli 200 ta mehmonga hizmat ko'rsatishdi. Aziz va Guli bирgalikda Bilolga qaraqanda 3 marta ko'proq mehmonlarga hizmat qilishdi. Aziza Bilolga qaraganda 30 ta ko'proq mehmonga hizmat ko'rsatdi. Guli nechta mehmonga hizmat ko'rsatgan?

- A 50
- B 70
- C 80
- D 90


**21\*\*\*.** Bir usta 3 kunda 4 just poyafzal yasaydi, shogirdi esa 6 kunda 5 juft poyafzal yasaydi. Ikkalasi 78 just poyafzalni necha kunda yasashadi?

- A 30
- B 32
- C 34
- D 36

**22\*\*\*.** Hizmatkor podshox huzurida bir yil ishlasa, 100000 kumush tilla va bitta oltin uzuk oladi. Ammo, hizmatkor 7 oydan so'ng ishdan ketishga majbur bo'ldi va unga 20000 kumush tillo va oltin uzuk haq oldi. Uzukning narxi qancha(kumush tilloda)?

- A 80000
- B 92000
- C 100000
- D 70000

**23\*\*\*.** Quyidagi shakl 6 ta kvadratdan tashkil topgan. Eng kichik kvadratning tomoni 1 ga teng. Eng katta kvadrat, e ning tomonini toping?





- A 4
- B 5
- C 6
- D 7




24\*\*\*. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish birinchi yili 20% ga, ikkinchi yili 10%ga ortdi. Mahsulot ishlab chiqarish ikki yil mobaynida necha foizga ortgan?

- A 50
- B 28
- C 30
- D 32


25\*\*\*. Quyidagi shaklni suv oldiga olib borilda va uning suvgaga aksi tushib turdi. Suvning narigi tomonidan qarab turgan odamga bu aks qanday shaklda ko'rinishini toping.




A



B



C



D




26\*\*\*. Fozil kiyim sotadi. U do'konida sotgani har biri 80000 ming so'mdan 60 juft shim sotib oldi. U shimplarning  $\frac{1}{4}$  qismini 160000 so'mdan sotdi. Keyin do'konida chegirma e'lon qildi. Qolgan shimplarni 100000 so'mnan sotdi. Fozil jami qancha foyda oldi?

- A 2100000
- B 4800000
- C 6000000
- D 1000000

27\*\*\*. Uzunligi 400 m bo'lgan poezd uzunligi 500 m bo'lgan tunneldan 30 s da o'tib ketadi. Poezdning tezligini toping.

- A 35 m/s
- B 30 m/s
- C 40 m/s
- D 45 m/s

28\*\*\*. Bo'yalgan sohaning yuzini toping.



- A 60
- B 72
- C 44
- D 20

29\*\*\*. Hisoblang.

$$889^3 + 3000 \cdot 889 \cdot 111 + 111^3 + 889 + 111$$

- A 10001000
- B 1001000
- C 1001001000
- D 1000001000

30\*\*\*. Fermada tovuqlar va qo'ylar bor. Ularning boshlarining soni jami 170 ta, oyoqlari soni 440 ta. Qo'ylarning soni tovuqlarnikidan nechta kam?

- A 50
- B 60
- C 70
- D 80

## 9 – sinf

- \* oson
- \*\* nisbatan qiyin
- \*\*\* qiyin

1\*. Soddalashtiring.  $\frac{2^{15} \cdot a^{16}}{4^7 \cdot a^{15}}$

- A 1
- B  $\frac{1}{2 \cdot a}$
- C  $2 \cdot a$
- D  $2^8 \cdot a$

2\*. Ifodani soddalashtiring.  $(a - 3)(a - 2) - (a - 1)(a - 4)$

- A  $-10a - 1$
- B 2
- C  $-3a + 1$
- D  $-a + 2$

3\*.  $y = x^2 - 5x + 6$  funksiya berilgan. Quyidagi qaysi nuqta bu funksiyaga tegishli emas?

- A (1;2)
- B (-2;0)
- C (9; 42)
- D (3;0)

4\*.  $\begin{cases} 3(x - y) = 6(y + 1) \\ \frac{x}{3} - 1\frac{1}{3} = y \end{cases}$  tenglamalar sistemasini yeching.

- A (3;2)
- B (-1;2)
- C (0;3)
- D  $\emptyset$

5\*.  $\sqrt[9]{9 \cdot \sqrt[5]{32}}$  ifodani soddalashtiring.

- A  $3\sqrt{2}$
- B 6
- C  $\sqrt{2}$
- D  $6\sqrt{2}$

6\*. Qo'sh tongsizlikni yeching.

$$-4 < 2 - 4x < -2$$

A  $-1.5 < x < -1$

B  $1 < x < 2$

C  $0 < x < 1$

D  $1 < x < 1.5$

7\*. Yig'indi qanday raqam bilan tugaydi?

$$9^{1996} + 9^{1997}$$

A 0

B 1

C 2

D 3

8\*. Tenglamaning yechimlar yig'indisini hisoblang.

$$9x^2 - x = 0$$

A 0

B  $\frac{1}{3}$

C  $\frac{1}{9}$

D 9

9\*.  $\sqrt{3 - 2\sqrt{2}}$  hisoblang.

A  $1 - \sqrt{2}$

B  $\sqrt{2} + 1$

C  $\sqrt{2} - 1$

D  $2\sqrt{2} - 1$

10\*. Ifodaning qiymatini toping.

$$\frac{3 + \sqrt{7}}{3 - \sqrt{7}} - \frac{3 - \sqrt{7}}{3 + \sqrt{7}}$$

A  $4 + \sqrt{7}$

B  $-3\sqrt{7}$

C  $6\sqrt{7}$

D 3

11\*\*. Tenglamani ildizlari yig'indisini toping.

$$|1 - |1 - x|| = 0.5$$

A 0      B 4      C 3      D 1



**12\*\*.** Do'konchi **a** ta kostyumni **b** so'mdan sotib oldi va ularning har birini bir xil bahoda sotdi. Natijada u **c** so'm foyda qildi. Do'konchi kostyumlarni necha so'mdan sotgan?

- A  $\frac{ab+c}{c}$
- B  $\frac{a(b+c)}{c}$
- C  $\frac{c}{a}$
- D  $ab + c$

**13\*\*.** Ikki sonning o'rta arifmetigi 7 ga, kavadratlarining ayirmasi 14 ga teng. She ikki son kvadratlarining yig'indisini toping.

- A 98.5
- B 56.25
- C 42.25
- D 96.5

**14\*\*.** Uchburchakning ikkita burchagi yig'indisi  $70^\circ$  ga teng. Shu burchaklarning bissektrisalari kesishidan hosil bo'lgan burchaklardan kichigi necha gradusga teng?

- A  $50^\circ$
- B  $45^\circ$
- C  $40^\circ$
- D  $35^\circ$

**15\*\*.** 60 km masofani bir velosipedchi ikkinchisiga qaraganda 1 soat tezroq bosib o'tdi. Agar birinchi velosipedchining tezligi ikkinchisining tezligidan 5km/soat kam bo'lsa, har bir velosipedchining tezligini toping.


- A 20 km/soat, 25 km/soat
- B 10 km/soat, 15 km/soat
- C 15 km/soat, 20 km/soat
- D 12 km/soat, 17 km/soat

**16\*\*.** Bitta jo'mrakdan barqaror o'qib turgan suv hovuzni 8 soatda to'ldiradi.

Jo'mrakdan chiqib turgan suvni 20% orttirilsa, bu hovuzning yarmi necha daqiqada to'ladi?

- A 120
- B 180
- C 200
- D 240

17\*\*.



Aylanali diagramma bir mamalakatdagi pomidor, baqlajon, qalampir va qovoqdan tashkil topgan 180 tonnalik hosilni aks ettiradi.

Bunga ko'ra, qalampir va baqlajon hosili o'rtasida qancha tonna farq bo'lgan?

- A 4
- B 5
- C 8
- D 10

18\*\*. Og'abek uchta bir xil kosa sotib oldi va 20 000 so'm berib, qaytimini qaytib oldi. Zarina ham huddi shunday uchta kosani huddi shu bahoga sotib oldi va 50000 so'm berib, qaytimini qaytib oldi. Quyidagi qaysi ma'lumot bitta kosaning narxini aniqlashga yordam berolmaydi?

- A Og'abek va Zarinaning olgan qaytimlarining ayirmasi.
- B Og'abek va Zarinaning olgan qaytimlarining yig'indisi.
- C Og'abek olgan qaytimining va bitta kosaning narxini yig'indisi.
- D Zarina olgan qaytimining va bitta kosaning narxini yig'indisi.

19\*\*. Perimetru 84 sm bo'lgan uchburchakning asosiga parallel qilib o'tkazilgan to'g'ri chiziq undan perimetri 42 sm ga, yuzi  $27 \text{ sm}^2$  ga teng uchburchak ajratadi. Berilgan uchburchakning yuzini toping.

- A 54
- B 108
- C 135
- D 81

**20\*\*.**  $q$  ning qanday qiymatida  $x^2 - x - q = 0$  tenglama ildizlari kublarining yig'indisi 16 ga teng bo'ldi?

- A 7
- B 4
- C 6
- D 5


**21\*\*\*.**  $f(x) = 1 - 2x$  funksiya berilgan. Agar  $f(\partial(x)) = x$  bo'lsa,  $\partial(x)$  funksiyani toping.

- A  $\frac{1-x}{2}$
- B  $\frac{x+1}{2}$
- C  $\frac{x-1}{2}$
- D  $\frac{2x-1}{4}$

**22\*\*\*.**  $2^{\sqrt{4+2\sqrt{3}}}: 2^{\sqrt{4-2\sqrt{3}}}$  ifodaning qiymatini toping.

- A 8
- B 4
- C  $8^{\sqrt{3}}$
- D  $2^{\sqrt{3}}$

**23\*\*\*.** Quyidagi shakl oq va qora qismlardan tashkil topgan.



Qora hududning yuzasini toping.


- A  $14 \text{ sm}^2$
- B  $15 \text{ sm}^2$
- C  $20 \text{ sm}^2$
- D  $22 \text{ sm}^2$



**24\*\*\*.** Eski traktor maydonni 6 soatda, yangisi esa 4 soatda haydaydi. Shu maydonni 3 ta eski va 2 ta yangi traktor qancha vaqtida haydaydi?

- A 1 soatda
- B 1.5 soatda
- C 2 soatda
- D 2.5 soatda

**25\*\*\*.** Usta hovlining bog'chasini o'rash uchun 2 metrlik balandlikdagi devor qurmoqda. Eng orqadagi devor qalinligi ikkita g'ishtdan iborat, bog'ni bo'lувчи qo'shimcha devorlar bir g'isht qalinlikda, va qo'shimcha devorlarni o'rtasida joylashgan asos yuzasi bir metr kvadrat bo'lgan uchta tayanch ustunlar ham bir g'isht qalinlikda. Devorlar tuzilishi quyidagicha:



Ikkita g'isht qalinlikdagi devor bir metr balandlikdagi bir metr kvadrat uchun

120 g'isht talab qiladi, bitta g'ishtlik devorga bo'lsa 60 g'isht, tayanch ustunga esa 14 ta gi'sht keradi.

Usta jami nechta g'isht ishlataladi?

- A 1782
- B 2724
- C 3480
- D 3564



26\*\*\*. Agar  $\begin{cases} x^3 + y^3 = 35 \\ x^2y + xy^2 = 30 \end{cases}$  bo'lsa,

tenglamalar sistemasining yechimlaridan iborat barcha  $x$  va  $y$  larning yig'indisini toping.

- A 0
- B 2
- C 6
- D 10

27\*\*\*.  $\sqrt[3]{2\sqrt{2\sqrt[3]{2}}}$  ni hisoblang.

- A  $\sqrt[9]{32}$
- B  $\sqrt[3]{16}$
- C  $\sqrt[3]{8}$
- D  $\sqrt[9]{64}$

28\*\*\*. To'g'ri burchakli uchburchakning uzinligi 14 va 18 ga teng katetlariga tushirilgan medianalari uni uchta uchburchakka va to'rtburchakka ajratadi. To'rtburchakning yuzini toping.

- A 56
- B 64
- C 48
- D 42

29\*\*\*. Koordinatalar boshidan  $5x + 12y = 60$  to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofani aniqlang.

- A  $4\frac{8}{13}$
- B 5
- C  $5\frac{3}{13}$
- D  $4\frac{7}{13}$

30\*\*\*. Mahsulotning narxi ketma-ket ikki marta 10% dan oshirildi. Keyinchalik bu mahsulotga talabning kamligi tufayli uning narxi 20% ga kamaytirildi. Mahsulotning keying bahosi dastlabki bahosiga qaraganda qanday o'zgargan?

- A o'zgarmagana
- B 1.2% ortgan
- C 3.2% ga kamaygan
- D 1.8% ga kamaygan

## 10 - sinf

- \* oson
- \*\* nisbatan qiyin
- \*\*\* qiyin

1\*. Tengsizlikni yeching.  $\frac{x+4}{4} - x \leq 2 - \frac{x}{2}$

- A  $x \leq 2$
- B  $x \leq 4$
- C  $x \geq -4$
- D  $x \leq -4$

2\*. Tenglamani nechta yechimi bor.  $16x^2 - 40x = -25$

- A 1 ta
- B 2 ta
- C 3 ta
- D yechimi yo'q

3\*. Hisoblang.  $\frac{3^{n+4} - 6 \cdot 3^{n+1}}{7 \cdot 3^{n+3}}$

- A  $3^n$
- B  $3^{n+1}$
- C  $3^{n+2}$
- D 1


4\*.  $\sqrt{5 - 2x} = 1 - x$  tenglamani yeching.

- A 2
- B -2
- C 2, -2
- D 0

5\*. Barcha ikki xonalo sonlar yig'indisi qanday raqam bilan tugaydi?

- A 5
- B 0
- C 4
- D 2

6\*. Quyida keltirilgan funksiyalarning grafigi rasmdagidek bo'ldi?



- A  $y = (x+2)(x+1)$
- B  $y = (x - 20)(x - 1)$
- C  $y = (x - 2)(1 - x)$
- D  $y = (x + 2)(1 - x)$

7\*.  $\frac{\sqrt[3]{3^x+3^x+3^x}}{\sqrt{3^x+3^x+3^x}} = \frac{1}{3}$  bo'lsa,  $x = ?$

- A 4
- B 5
- C 6
- D 7

8\*. Hisoblang.  $3\tan 0^\circ + 2\cos 90^\circ + 3\sin 270^\circ - 3\cos 180^\circ$

- A 6
- B 0
- C -6
- D 9

9\*. Poezdda 936 yo'lovchi bir edi. Agar erkaklar balalardan 7 marta, ayollar 5 marta ko'p bo'lsa, poezdda qancha ayol bo'lgan?

- A 320
- B 350
- C 360
- D 400



10\*. Parallelogrammning tomonlari 3 va 5 ga, uning kichik diagonali 4 ga teng. She parallelogrammning yuzini toping.

- A 6
- B 8
- C 10
- D 12

11\*\*. Arifmetik progressiyaning o'n uchinchi hadi 5 ga ten. Uning dastlabki 25 hadlarining yig'indisini toping.

- A 125
- B 100
- C 75
- D 225

12\*\*.  $f(x) = 2x^2$  va  $\partial(x) = x + 1$  bo'lsa, x ning nechta qiymatida  $f(\partial(x)) = \partial(f(x))$  bo'ladi?

- A 1
- B 2
- C 3
- D 4

13\*\*. Agar  $x = 256$  bo'lsa,  $\frac{x-1}{x^{\frac{3}{4}}+x^{\frac{1}{2}}} \cdot \frac{x^{\frac{1}{2}}+x^{\frac{1}{4}}}{x^{\frac{1}{4}}+1} \cdot x^{\frac{1}{4}} + 1$  ning qiymatini oping.

- A 14
- B 15
- C 16
- D 13

14\*\*. Natural sonlardan iborat ketma-ketlikning ikkinchi hadi birinchi hadidan katta, uchinchi hadidan boshlab har bir hadi o'zidan oldingi ikkita handing ko'paytmasiga teng. Agar shu ketma-ketlikling to'rtinchi hadi 18 ga teng bo'lsa, uning ikkinchi va birinchi hadi ayirmasini toping.

- A 1
- B 5
- C 17
- D 1 yoki 17

15\*\*. Agar m va n natural sonlar  $\sqrt{2}(n - 5) + n^2 - 6mn + 5m = 0$  tenglikni qanoatlantirsa. n·m ni toping.

- A 2
- B 5
- C 6
- D 4

16\*\*. Muntazam uchburchakning yuzi 64 ga teng. Uning perimetrini toping.

A  $16\sqrt[4]{27}$

B  $\frac{64}{\sqrt[3]{3}}$

C 64

D  $64\sqrt{3}$

17\*\*. Shahmat turnirida ishtirik etayotganlarninghar biri qolgani o'yinchilar bilan ikki partiyadan shaxmat o'ynadi. Agar turnirda hammasi bo'lib 462 partiya o'ynalgan bo'lsa, turnir ishtirokchilari necha kishi bo'lgan?

A 18

B 20

C 22

D 24

18\*\*. Hovuzga uchta quvur o'tkazilgan bo'lib, birinchi va ikkinchi quvurlar birgalikda hovuzni 12 soatda, birinchi va uchinchi quvurlar birgalikda hovuzni 15 soatda, ikkinchi va uchinchi quvurlar birgalikda hovuzni 20 soatda to'ldiradi. Uchala quvur birgalikda ochilsa, hozuvni necha soatda to'ldiradi?

A 10

B 8

C 9

D 11

E 7

19\*\*. 20 litr tuzli suvning tarkibida 12% tuz bor. Bu eritmada tuz miqdori 15% bo'lishi uchun necha litr suv bug'latirsh kerak?

A 4

B 3

C 5

D 4.2

20\*\*.  $f\left(\frac{3x-2}{2}\right) = x^2 - x - 1$  bo'lsa,  $f(1) = ?$


A  $-\frac{5}{9}$

B  $-\frac{13}{9}$

C  $-\frac{7}{9}$

D -1

21\*\*\*. 60 ta kubni birlashtirib quyidagi zinopoya yasalgan.



Zinopoya keyin to'liq bo'yoq bilan bo'yalgan. Lekin ichikariga qaragan qismlari bo'yalmay qoldirilgan. Zinapoyada qancha kubning umuman hech qaysi tarafi bo'yalmay qolgani?

- A 6
- B 12
- C 16
- D 30


22\*\*\*. Kishi harakatsiz eskalatorda 4 minutda, harakatlanayotda eskalatorda esa 48 sekundda yuqoriga ko'tarildi. Shu kishi harakatdagi eskalatorda to'xtab turgan holda necha minutda yuqoriga ko'tarildi?

- A 1
- B 1.2
- C 1.5
- D 1.8
- D 2

23\*\*\*. Kitobni betlarini sahifalab chiqish uchun 1423 raqam ishlatildi. Agar sahifalash 3-betdan boshlaganaga bolsa, kitob necha betlik?

- A 416
- B 511
- C 386
- D 654

24\*\*\*.



Bu Pentariya respublikasining davlat bayrog'i. Unda oq orqa fonda oltita qora kvadratlar bor. Besh kichik kvadrat beshta viloyatni bildiradi. Bu kichik kvadratlar tomonlari bayroq bo'yining o'ndan biriga va bayroq enining sakkizdan biriga teng. Katta kvadrat davlatning o'zini aks ettiradi va uning taraflari kichik kvadrat taraflaridan uch marta katta.

Pentariya bayrog'inining qancha foiz qora rangdan tashkil topgan?

A 10%

B 12.5%

C 15%

D 17.5%

25\*\*\*. Agar  $b = \sin(40^\circ + \alpha)$  va  $0^\circ < \alpha < 45^\circ$  bo'lsa,  $\cos(70 + \alpha)$  ni b orqali ifodalang.

A  $-\frac{1}{2} \cdot (\sqrt{3(1 - b^2)} + b)$

B  $\frac{1}{2} \cdot (b - \sqrt{3(1 - b^2)})$

C  $\frac{1}{2} \cdot (\sqrt{3(1 - b^2)} - b)$

D  $\frac{1}{2} \cdot (\sqrt{3(1 - b^2)} + b)$



26\*\*\*.  $\begin{cases} 5^x + 5^{-x} = 13 \\ 28^x < 17^x \end{cases}$  bo'lsa,  $5^x - 5^{-x} = ?$

A  $\sqrt{135}$

B  $-\sqrt{165}$

C  $\sqrt{175}$

D  $\sqrt{165}$

27\*\*\*. Parellelogrammning dioganali  $8\sqrt{2}$  ga teng. She perallelogramma ichki va tashqi aylanalar chizish mumkin bo'lsa, parallelogrammning yuzini toping.

A berilganlar yetarli emas

B 32

C 64

D 128

28\*\*\*. Bir mehmonxonada 2, 4 va 5 kishilik xonalar bor.

Mehmonxonaga kelgan 40 kishilik sayyoohlар guruhi hamma turdagи xonalardan foydalaniб joylashishdi. Bunga ko'ra sayyoohlар eng kamida qancha xonada joylashadi?

A 6

B 7

C 8

D 9

29\*\*\*. Agar  $4a^2 + 9b^2 + 16c^2 - 4a - 6b - 8c + 3 = 0$  bo'lsa,  $abc$  ko'paytmaga teskaru sonni toping.

A  $\frac{1}{24}$

B 12

C 48

D 24

30\*\*\*. 20 dan katta bo'lмаган барча natural sonlarning ko'paytmasi  $n$  ( $n \in N$ ) ning qanday eng katta qiymatida  $2^n$  ga qoldiqsiz bo'linadi?

A 10

B 18

C 20

D 16

### 5-6 sinflar uchun

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
D	D	C	B	B	B	A	C	C	B	B	C	A	C	A
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
D	A	C	C	B	C	C	A	B	B	B	C	A	A	A

### 7-8 sinflar uchun


1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
B	B	A	A	D	B	A	B	A	D	D	A	C	C	C
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
B	C	D	A	B	D	B	D	D	A	A	B	C	D	C

### 9 – sinflar uchun

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
C	B	B	D	A	D	A	C	C	C	B	A	A	D	A
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
C	D	A	B	D	A	B	D	A	D	D	A	D	A	C

### 10 – sinflar uchun

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
C	A	C	B	B	D	B	B	C	D	A	A	B	D	D
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
A	C	A	A	A	A	A	B	D	C	B	C	D	D	B



Siz Lidersiz kitoblari prezident maktabi kirish imtihonlari uchun maxsus ishlab chiqarilgan kitoblar to'plami. Kitoblar imtihonda tushadigan barcha fanlar va mavzularni qamrab oladi va savollarga to'liq yechimlar ko'rsatib beradi. To'liq to'plam hozirda 5 ta kitob va diskdan iborat.



Kitoblar haqida so'rash va buyurtma berish uchun [sizlidersiz.uz](http://sizlidersiz.uz) yoki +998712050108 ga bog'laning.